

O'SMIRLIK YOSHIDA ADDIKTIV XULQNING SHAKLLANISHIDA O'Z-O'ZIGA BAHO BERISHNING TA'SIRI

Mamajonova Shoxista Kamoldinovna

Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10700229>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirning o'zini o'zi baholashi dastavval individ faoliyati natijalari ta'sirida shakllanishi, atrofdagilarning baholashi, o'ziga bo'lgan ishonch boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanishi va mustahkamlanishi bu esa addiktiv xulq shakllanishini oldini olish uchun samarali psixoprofilaktik vosita ekanligi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, addiktiv xulq, o'zini o'zi yuqori baholash, o'smir, individ.

O'smirda o'z-o'zi baholash shakllanib borgan sayin, atrofdagilarning fikridan va hatto faoliyatning aniq natijalaridan tobora mustaqil bo'la boradi. Barqaror o'zini o'zi baholash shakllanib bo'lishi bilan u o'zini o'zi mustahkamlash tamoyiliga ega bo'ladi. Bu o'zini o'zi yuqori baholashga ham o'zini o'zi past baholashga ham taaluqlidir. Masalan, ota-ona yoki ulardan birining kamsituvchi munosabati boshqalar ishtirokidagi faoliyat oldida, jumladan imtihon oldidan qat'iy qo'rquvni shakllantirishi mumkin

O'smir — alohida shaxs, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. O'smir ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazarida turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur obyekti sifatida, xatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

O'smirning o'zini o'zi baholashi o'smir kamolotining muhim ko'rsatkichidir. Odamning o'ziga-o'zi qanday munosabatda bo'lishi unga atrofdagilarning qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. O'zini-o'zi baholash o'smirning hal qiluvchi xususiyati, uning o'zagidir. O'zini-o'zi baholash sinf jamoadagi faoliyati, mavqeini, uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatini baholashni o'z ichiga oladi. O'smirning faolligi, uning jamoa faoliyatida ishtiroki uning o'zini-o'zi tarbiyalashga intilishi, o'zini-o'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz hech nimaga yaramaydigan subyekt deb o'ylaydigan odam taqdirini yaxshilash uchun istar-istamas kuch-g'ayrat sarflaydi. Aksincha, o'zlarini yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq ishlashga moyildirlar. Ular yahshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar.[2]

To'g'ri o'zini o'zi baholash dastavval individ faoliyati natijalari ta'sirida shakllanadi. Lekin hamma gap shundaki bu natijalarni ta'sirini atrofdagilar baholaydilar. Shuning uchun atrofdagilarning bahosi o'zini-o'zi baholashni belgilab beradi. O'ziga bo'lgan tuyg'u boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanadi va mustahkamlanadi. Agar atrofdagilar ta'lim muassasasi o'quvchisiga hurmat bilan munosabatda bo'lishsa u ham o'zini haqiqiy hurmatga sazovor deb hisoblay boshlaydi. Agar, aksincha ish qilinsa, o'quvchiga muntazam iltifotsizlik ko'rsatilganda, asosiy e'tibor uning kamchiliklariga qaratilsa, unda uning o'zi haqida hurmatga sazovor emas degan xulosa chiqarishdan o'zga imkoni qolmaydi. Bunga nisbatan ham turlicha holat ro'y berishi mumkin: Loqaydlik, beadablik, tajovuzkorlik va boshqalar.

O'zini o'zi baholash shakllanib borgan sayin, ular atrofdagilarning fikridan va hatto faoliyatning aniq natijalaridan tobora mustaqil bo'la boradi. Barqaror o'zini o'zi baholash shakllanib bo'lishi bilan u o'zini o'zi mustahkamlash tamoyiliga ega bo'ladi. Bu o'zini o'zi yuqori baholashga ham o'zini o'zi past baholashga ham taaluqlidir. Masalan, ota-ona yoki ulardan birining kamsituvchi

munosabati boshqalar ishtirokidagi faoliyat oldida, jumladan imtihon oldidan qat'iy qo'rquvni shakllantirishi mumkin. O'quvchi imtihonni muvaffaqiyatli topshirganida ham, uning o'ziga o'zi past baho berishini o'zgartirmaydi. Uning boshida quyidagi fikr shakllanadi: "Bu muvaffaqiyatlarning hammasi ta'sodifiy u qobiliyatsiz o'quvchi ekanligini o'qituvchilar qanchalik kech aniqlasalar, uyat ham shunchalik daxshatli bo'ladi. Bu norozilik tuyg'usi odamni bir umr ta'qib qilishi mumkin.

O'zini o'zi baholash bu boshqa odamlarni baholashga qaraganda ancha murakkab xodisadir. O'zini o'zi baholash baholashga nisbatan ancha kechroq shakllanadi. Barcha yosh guruhlarida odamlar o'zlariga nisbatan boshqalarni xolisroq baholaydilar. O'ziga boshqalar nuqtai nazaridan fikr bildirish qobiliyati muloqotda va jamoa faoliyatida rivojlanadi. O'zini o'zi baholash oshirilgan, pasaytirilgan va mos yoki xolisona bo'lishi mumkin. Bu ta'riflar o'smir ning real imkoniyatlariga nisbatan oshirilgan.

Biz o'quvchining o'zini o'zi baholash guruh fikri bilan farq qilgani uchun o'quvchini qoralashga duch kelamiz. Lekin uning guruh tomonidan baholanishi bilan o'quvchining real fazilatlarining mos kelishi darajasini pedagog har doim ham tahlil etilmaydi. Bolaning o'zini o'zi baholashini shakllantirish juda nozik jarayon bo'lib, uni jamoa fikrini esa o'smir ning uning fazilatlariga muvofiq ravishda xayrixohlik bilan baholashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Psixologiyada o'z o'zini anglashning uch turi ajralib turadi.

O'zini munosib baholash

O'zini idrok qilishning bunday turida odamning bahosi haqiqatga to'g'ri keladi. Inson o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini ongli ravishda biladi, imkoniyatlar va ehtiyojlarni biladi, ichki potentsialni aniqlaydi.

O'ziga bo'lgan ishonchning yetarli emasligi

O'z-o'zini hurmat qilishning buzilganligi odamning o'zi haqidagi fikri ob'ektiv emasligini anglatadi. Agar inson o'zini o'zi umuman qabul qilmasa yoki o'ziga xos bo'lmagan xususiyatlarga ega ekaniga ishonsa, radikal o'zini o'zi idrok etishni haddan tashqari tushirish yoki kamsitish mumkin.

O'zini o'zi qadrlash

Bunday holda, inson hayotining turli davrlarida o'zini boshqacha tutadi, keying bosqichda ko'proq ishonchni namoyon qiladi, so'ngi bosqichda esa zaif yoki taniqli bo'ladi.

Agar biz o'zimizga ba'zi xususiyatlar nuqtai nazaridan qarasak va boshqa xususiyatlarga nisbatan yetarlicha qaramasak, aralash shakl haqida ham gapirish mumkin. Masalan, biz kasbda ishonch bilan tan olamiz va shaxsiy hayotimizda o'zimizni munosib sherikka loyiq emas deb hisoblaymiz.[4]

O'zini o'rtacha baholaydigan inson osongina, xotirjam va uyg'un hayot kechiradi, ko'plab do'stlari bor, muvaffaqiyatli shaxsiy hayot uchun barcha imkoniyatlarga ega. Ruhiy va psixosomatik kasalliklarning ehtimolligi past. O'zini aybdor his qilish uni qiynamaydi, xatolarni tushunadi, tuzatadi.

Yuqori va haddan tashqari oshirilgan o'z-o'zini hurmat qilishning mohiyati maqtanish va kamchiliklarga e'tibor bermaslik kabi buzilgan o'ziga xos jixatdir. Biror kishi uchun yuqori o'zini anglash past o'zini o'zi anglashdan yaxshiroqdir, chunki bu oldinga siljishga imkon beradi. Ammo bunday odamlarning yaqin do'stlari kam, ular ko'pincha yolg'iz qolishadi.

O'ziga bo'lgan ishonch insonda bolaligidanoq shakllanadi. Bunda ota-onalarning bolaga sevgisini qanday ko'rsatishi muhimdir. Agar sevgi shartsiz bo'lsa, yaxshi xulq-atvorga bog'liq bo'lmasa, bunday bola normal yoki yuqori o'zini o'zi qadrlashi bilan o'sadi. Biror narsa uchun uni sevishini

bilganida (bola o'yinchoqlarni yig'ishtirishi, a'lo bahoga ega bo'lishi, axlatni chiqarib tashlashi), o'smirlik davrida odam uni xuddi shunday sevib bo'lmasligiga ishonadi, lekin yaxshi munosabatda bo'lish kerak. [3]Ota-onalarning bolaning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklariga munosabati muhim rol o'ynaydi. O'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishda ota-onalarning "Siz buni uddalay olasiz", "Bunday aqlli bola albatta bajaradi" kabi baholari asosida ijobiy rol o'ynaydi. Maktab psixologining vazifalaridan -yosh avlodni katta hayotga to'g'ri yo'naltirishda ota-ona va o'qituvchi bilan barobar turadigan o'smir shaxsini o'rganish muxim. Murakkab davr - o'smirlikka qadam qo'yayotgan bola, o'smir sifatida shakllanayotgan o'smirning o'z olamidagi muommolariga yechim topish chun yordam berishda maktab psixologing roli katta hisoblanadi. Maktab psixologi o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini baholashini tekshirish uchun undan o'z-o'zini baholash testini o'tkazishi kerak. Testdan olingan natijalarga qarab, o'smirda kamchilik bo'lsa, u bilan shug'ullanishi zarur. Testdan olingan natijalar psixologni qoniqtirmasa, o'smir bilan individual shug'ullanishi lozim. Uning ota onasi bilan munosabatini, do'stlari bilan munosabatini tahlil qilishi zarur.

References:

1. Kazakov V.G.Psixologiya.M1989.200-209 b.
1. Rogov E.I.Nastalnayo kniga prokticheskogo psixologiya.M.1999 b.304-355b 1-tom
2. Taychinov M.G.Vospiranie I samovospiranie shkolkov.M.1982
3. Ruvinsky L.I.Psixologiya samovospitaniya.M.1982.
4. O'SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI: Djalolova Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova Shohista Kamolovna, Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchilari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6. – С. 287-292.
5. Mamajonova S. SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN MODERN METHODS OF DEVELOPMENT //Конференции. – 2020.
6. Kamolovna, Mamajonova Shohista; THEORETICAL FOUNDATIONS OF MEMORY PROCESSES AND THEIR SPECIFICITY IN PRESCHOOL AGE,Galaxy International Interdisciplinary Research Journal,10,3,145-148,2022,
7. Kamoldinovna, Mamajonova Shokhista; Mirzamirovna, Mamaziyayeva Charoskhan; ,Formation of Positive Attitude Methods in Primary Class Students,Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching,14,,87-91,2022,
8. Pulatova, G; Mamajonova, Sh; ,DEVELOPING CHILDREN'S SPEECH IN A FOREIGN LANGUAGE THEORETICAL ANALYSIS,Конференции,,,2020,
9. Mamajonova, Shoxista; ,SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN MODERN METHODS OF DEVELOPMENT,Конференции,,,2020,
10. Мамажонова, Шохиста; Джуханова, Нохида; ,Nutqida nuqsoni bor bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari,Общество и инновации,2,6/S,205-210,2021,
11. Kamoldinovna, Mamajonova Shoxista; ,BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJOBIY MUNOSABAT USULLARINI SHAKLLANTIRISH: Mamajonova Shoxista Kamoldinovna Farg'ona

davlat universiteti Psixologiya kafedrası o'qituvchisi, Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, 12, 333-337, 2022,

12. Пулатова, Г. (2021). Теоретический анализ изучения феномена билингвизма. *Общество и инновации*, 2(6/S), 200-204.